


«TASDIQLAYMAN»

O‘zbekiston Respublikasi Milliy
gvardiyasi qo‘mondoni o‘rinbosari –
Qo‘riqlash bosh boshqarmasi
boshlig‘i v.b. polkovnik



N.A. Qurbonov

2019 yil «09» avgust

DAVLAT XIZMATLARI KO‘RSATISH REGLAMENTI

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanayotgan obyekt va fuqaro xonadonlariga o‘rnatilgan qo‘riqlash-yong‘indan ogohlantiruvchi signalizatsiya vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish

1. Xizmatlar tavsifi

1.1. Xizmatlarning nomlanishi

Shartnoma asosida:

- fuqaro xonadonlarini texnik qo‘riqlash markazlari (punktleri) orqali xususiy mulklarini qo‘riqlash;
- obyektlarni texnik qo‘riqlash markazlari (punktleri) orqali hamda «tashvish» tugmasi orqali qo‘riqlash.

1.2 Xizmat natijalari

Jismoniy va yuridik shaxslarning xususiy mulklarini ishonchli qo‘rig‘ini ta’minlash.

1.3 Xizmat ko‘rsatuvchi davlat idoralari

Milliy gvardiya Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar qo‘riqlash bo‘linmalari.

1.4. Huquqiy asos

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 03 iyuldaggi «O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash xizmatining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 555-son qarori.

1.5. Xizmatdan foydalanuvchi

Milliy gvardiya Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar qo‘riqlash bo‘linmalari bilan shartnoma tuzgan jismoniy va yuridik shaxslar.

1.6. Murojaatlarni topshirish muddati

Telefon tarmog‘i orqali murojaat obyekt va fuqaro xonadonini qo‘riqqa topshirishdan ikki soat oldin texnik qo‘riqlash markazidagi (punktidagi) «Qo‘riqlash-yong‘indan ogohlantiruvchi signalizatsiya vositalarini sozlash uchun tushgan buyurtmalarni ro‘yxatga olish» jurnaliga qayd qilingandan so‘ng.

1.7. Murojaatlarni topshirish muddati

Murojaat kelib tushgandan so‘ng bir ish kunida yoki xo‘jalik idorasi bilan kelishilgan holda.

1.8. Tasdiq muddati

-

2. Xizmatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar

2.1. Ma’lumot tuzilishi va mazmuni

Qo‘riqlanayotgan obyekt yoki fuqaro xonadonidagi qo‘riqlash-yong‘indan ogohlantiruvchi signalizatsiya vositalariga texnik xizmat ko‘rsatilgandan so‘ng nosozlik sabablari va olib borilgan ishlar buyicha ma’lumotlar taqdim etiladi.

2.2. To‘liq ma’lumot

Jismoniy va yuridik shaxslar xususiy mulklarini texnik qo‘riqlash markazlari (punktлari) orqali qo‘riqqa olish to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘g‘risida:

- Milliy gvardiya Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar qo‘riqlash bo‘linmalariga telefon tarmog‘i yoki yozma murojaat qilgan holda;
- O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining rasmiy veb-sayti (milliygvardiya.uz) orqali olinishi mumkin.

2.3. Murojaat orqali ma’lumot olish

Telefon tarmog‘i yoki yozma murojaat qilinganda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash bo‘limlari tomonidan qo‘riqlanayotgan obyekt va fuqaro xonadonlariga o‘rnatilgan qo‘riqlash-yong‘indan ogohlantiruvchi signalizatsiya vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ma’lumotlar taqdim etiladi.

2.4. Xizmatlarni ko‘rsatish joylarida ma’lumot olish

Milliy gvardiya Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar qo‘riqlash bo‘linmalari.

2.5. Foydalanaladigan hujjat (blank)lar

-

3. Xizmat ko‘rsatish

3.1. Ish vaqtি

Reglament ishlari: grafik asosida ish kunlari soat 09:00 dan 18:00 gacha. Nosozliklarni bartaraf etish bo‘yicha: xo‘jalik idorasi bilan kelishilgan holda.

3.2. Kutish shartlari

Xo‘jalik idorasi bilan kelishilgan holda.

4. Xizmat ko‘rsatish tartibi

4.1. Kerakli hujjatlar

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash bo‘linmalari bilan tuzilgan shartnomalar.

4.2. Xizmat narxi

Tuzilgan shartnomaga asosan.

4.3. Davlat xizmati ko‘rsatish tartibi

Texnik xizmat ko‘rsatish va reglament ishlari quyidagicha xizmat ko‘rsatiladi:

- yuridik shaxslarning obyektlariga har oyda tasdiqlangan grafik asosida;
 - jismoniy shaxslarning xonadonlariga har yarim yillikda tasdiqlangan grafik asosida.
- Nosozliklarni bartaraf etish xo‘jalik idorasi murojaati bilan kelishilgan holda.

4.4. Idoralararo davlat xizmati ko‘rsatish tartibi

Xo‘jalik idorasi murojaatiga asosan «Qo‘riqlash-yong‘indan ogohlantiruvchi signalizatsiya vositalarini sozlash uchun tushgan buyurtmalarni ro‘yxatga olish» jurnaliga qayd qilingandan so‘ng o‘rnatilgan tartibda.

4.5. Rad etish

Qo‘riqlash xizmati uchun tuzilmagan shartnoma.

5. Sifatni ta'minlash

5.1. Sifat parametrlari

Kelib chiqqan nosozliklarni bartaraf etish hamda qo'riqlash-yong'indan ogohlantiruvchi signalizatsiya vositalariga har oyda texnik xizmat ko'rsatish.

5.2. Sifatsiz xizmatga shikoyatlar

«Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan.

O'zbekiston Respublikasi Milliy

gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi

bo'lim boshlig'i podpolkovnik



A.Ya. Eshqobulov

2019 yil «09» avgust